

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A. ABDUNABIYEV

TARIX – MUNAVVAR KO'ZGU

Darslik

O'zbekiston Respublikasi Oliy va
o'rta maxsus ta'lim vazirligi nashrga tavsiya etgan

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti

Toshkent – 2007

Tarix – munavvar ko‘zgu. Darslik.

Abdulla Gulyamovich Abdunabiye

Taqrizchilar: tarix fanlari doktorlari, professorlar

D.A. Alimova, Q. Usmonov, filologiya fanlari doktori

H. Homidov.

Mas’ul muharrir: G. Yusupova

Abdunabiyev A.

Tarix – munavvar ko‘zgu: Darslik/ Abdunabiyev A. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. – 80 b.

ISBN 978-9943-319-09-7

© «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2007.

"Avvalo, yoshlarimiz tarixni chuqur o'rganishlari lozim. Negaki, o'z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga eltuvchi yo'lni topa olmaydi. Tarixga bepisand xalqning kelajagi yo'q... Ana shu tarixdan saboq chiqarmasak, ertaga kechagi kun ko'rguliklari qaytadan boshimizga tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to'g'ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi".

Islom KARIMOV

"Xalq so'zi", 2006-y. 10-may.

1. MOZIYNI BILIB ISH QILMOQ XAYRLIDIR

Insoniyat uzoq asrlar davomida erishgan sivilizatsiya, moddiy va ma'naviy madaniyatning bugungi darajasi jahon xalqlari qobiliyati, zehni, tadbirkorligi, matonati, tinimsiz mehnatining mahsulidir.

Tarix odamzodning hayot uchun kurashini, bu jarayonda uning takomillashuvini, yuksalishini, kamolotga intilishini aks ettiruvchi xotira daftaridir. Demak, jahon tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Vatanimiz o'tmishi ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviy-ruhiy kechinmalari, sodir bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi fandir. Tarix ajdodlarning keyingi avlodlarga qoldirgan noyob merosi, xalqimizning intellektual mulkidir.

Abdurauf Fitrat "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzuli sabablarini o'rganaturg'on bilimdir", degan edi. O'tmishning murabbiyligini inobatga olib Abdulla Qodiriy moziyga qarab ish qilmoqqa da'vat etadi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa tarix kelajak tarozusidir, deb uqtiradi.

Tarixda sodir bo'lgan har bir voqea, hodisa o'tmishga mansub. Shul sabab ularni keyingi avlod o'zgartirolmaydi. Ammo, ming afsuski, odamlar uni buzib ko'rsatishi yoki ayrim sahifalarini bexosdan yoki atayin unutishi mumkin ekan. Xalqimizning uch ming yillik boy tarixi keyingi yuz-yuz ellik yil davomida bir taraflama yoritildi, uning talaygina yorqin sahifalari e'tiborga olinmadi yoki qasddan soxtalashtirildi. Xalqimiz turli tazyiqlar ostida o'z urf-odati, madaniyati, an'alarini unuta boshladi, ayrim kishilarda hatto manqurtlik belgilari paydo bo'ldi.

Bu xavfli jarayon sho'rolarning totalitar tizimi davrida kuchaydi. Mahalliy aholi bunday mensimaslikdan o'ksidi, ziyolilarimiz ko'ngli o'ta g'ash bo'ldi, iztirob chekdi. Xususan, Abdurauf Fitrat o'zining "Temur sag'anasi" asarida sho'rolar istibdodidan qutulishga Sohibqiron ruhidan iltijo qiladi, g'oyibona maslahat so'raydi. Munavvar qori Abdurashidxonovning "Milliy ittihad" tashkiloti o'tmishga xolis qarashni talab qiladi.

Bu sharoitda o'lkamiz rahbarlari Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov xalqimiz ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolishga intildilar. Lekin ular ham 1937–1938-yilgi siyosiy qatag'on qurbonlari bo'ladilar.

O'zbekistonning keyingi rahbarlari va ayrim ziyolilar markaz-

ga "Otang yaxshi, onang yaxshi" qabilasida ish olib borishga majbur bo'ladilar va shu alfozda respublika manfaatlarini imkon boricha yoqlaydilar. Lekin II jahon urushi tugagach sho'rolarning qatag'onlik siyosati qayta kuchaydi. Xususan, Shukrullo (uning "Kafansiz ko'milganlar" asarini eslaylik), Saida Zunnunova kabi adiblar taqdiri ham ko'rsatib turibdi. Yoki Abdulla Qahhorning "Men partiyaning yugurdagi emasman, men xalq xizmatkoriman" iborasi, Erkin Vohidovning "O'zbekim" qissasi jasorat timsoli edi.

E.Vohidovning fig'oni falakni larzaga keltirgani bejiz emas:

*Tarixingdur ming asrlar ichra pinhon o'zbekim,
Senga tengdosh Pomir-u oqsoch Tiyonshon o'zbekim,
So'ylasin Afrosiyob-u, so'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida bitta marjon o'zbekim.*

Shukurlarkim, istiqlol tufayli yurtboshimiz Islom Karimov sa'y-harakatlari bilan O'zbekiston tarixini o'rganishga e'tibor keskin o'zgardi. Prezidentimiz tarixchi olimlarga murojaat qilib, haqqoniy tariximizni tiklashga, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishga chaqirdi. O'quv yurtlarida Vatanimiz tarixi keng va chuqur o'rganilishiga imkoniyat tug'ildi, yoshlarimizda haqiqiy tarixiy ongni shakllantirish uchun zarur sharoit yaratildi. Yurtga hurmat uning o'tmishini o'rganish va bilishga bog'liqligi yana bir bor isbot etildi.

O'tmishni o'rganish, uni idrok etish, tarix saboqlaridan to'g'ri xulosa chiqara bilish har bir ma'rifatli inson burchidir. Moziyni tahlil eta bilish kishiga bugunni baholash, anglash, kelajakka ziyraklik bilan nazar tashlash imkonini beradi. Tarixiy ong Vatan o'tmishini idrok etish, o'z xalqi va mamlakatini istalgan joyda va istalgan darajada boshqalarni tanishtira olish uchun uquv desak to'g'ri bo'lar. Tarixiy tafakkur bugun ongli faoliyat ko'rsatishning muhim omillaridan biridir. Shuning uchun ham haqiqiy insonga tarixiy xotira zarur. Prezidentimiz Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" degan ma'nodor ibora mazmunini mahorat bilan yoritib bergan edilar.

Jahonning bir qancha nufuzli davlatlarida fuqarolik huquqini olmoqchi bo'lgan har bir kishi davlat tili, mamlakat konstitutsiyasi va tarixini o'zlashtirish bo'yicha davlat imtihoni topshirishi shart ekan. Zero, o'z tarixini bilgan kishigina mamlakat fuqarosi, deb hisoblanadi. Bunday udum ko'pgina mam-